

**INGLIZ TILINI O'QITISHDA INTERFERENSIYA VA UNI
BARTARAF ETISH YO'LLARI**

Haydarova Maftuna Murodilla qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail:haydarovamaftuna1992@mail.ru

***Annotatsiya:** Maqolada chet tillar, jumladan, ingliz tili o'qitish jarayonida birinchi til ya'ni ona tili ta'sirida fonologik, morfologik, sintaktik va semantik sohalarda yuzaga keladigan qiyinchiliklar hamda ularni bartaraf qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** interferensiya, transpozitsiya, leksika, fonetika, grammatika, morfologik soha, sintaktik soha, semantik soha, artikl.*

Kirish

Har qanday chet til o'rganishda ona tili muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni ona tilida o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar asosida chet tildagi bilim, ko'nikma va malakalar egallanadi. Biroq chet tilda nutq rivojlanishi ona tilida nutq rivojlanishi bir xilda kechmaydi. Sababi ona tilida nutq deyarli ong ishtirokisiz va maqsadli rivojlantirilmaydi. Bola nutqi va tafakkuri parallel rivojlanadi. Natijada bola ongida shakllangan fikrni ifoda etish maqsadida til vositalaridan foydalanadi va shu tariqa o'zini o'rab turgan borliqni anglay boshlaydi. Bolada borliqni idrok qilish jarayonida til bilan ifodalanadigan tushunchalar shakllanib boradi.

Chet tilda nutq rivojlanish jarayoni mutlaqo boshqacha kechadi. Chet til birliklarining egallanishi o'rab turgan borliqni anglash jarayoni bilan muvofiq bo'lmaydi. Shuning uchun chet tilda bilim, ko'nikma va malakalar egallanishi uchun leksika, fonetika va grammatikaga oid til materiali metodik tayyorlanadi(tanlanadi, taqsimlanadi, tasniflanadi) va taqdim etiladi.

Tillarni o'rganish tartibi dastlab ona tilidan boshlanib, undan keyin ikkinchi til va, nihoyat, chet tilga o'tiladi. Shuningdek, ona tili va ikkinchi til tabiiy

vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, dars jarayonida muallim rahbarligida olib boriladi.

Chet tillar (ingliz tili, fransuz tili, nemis tili...)ni o'rganish jarayonida orttirilgan nutqiy tajriba ushbu tilni o'rganishga ijobiy hamda salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Psixologiyada til tajribasi yangi o'zlashtirilayotgan hodisaga to'sqinlik qilishi ya'ni halaqit berishi interferensiya, tilni o'rganishga ko'maklashishi ya'ni uni osonlashtirishga yo'llashi transpozitsiya deb ataladi. Salbiy ta'sir o'z navbatida ikki xil ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin: 1) tillararo (ona tili, ikkinchi til, chet tilida) va 2) til ichki qiyinchiliklari (chet tilning o'zida). Qiyinchiliklar leksika, grammatika, talaffuzda uchraydi, nutq jarayonini tushunishga halaqit beradi. Natijada xatolar yuzaga keladi. Mavjud qiyinchiliklar o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'qituvchi, o'quvchi-o'quvchi hamkorligida bartaraf etiladi.

Qiyosiy tilshunoslik muammolari va interferensiya hodisasini J.Buranov, O'. Yusupov, M.T.Irisqulov, K.S.Qodirova, V.G.Gak, V.M.Beldiyan, A.Sodiqov, G.X.Bakiyev kabi olimlar o'rgangan.

O'. Yusupov tillararo interferensiya hodisasini quyidagicha izohlaydi: "tillararo interferensiya nutqda nafaqat normadan og'ish shaklida namoyon bo'ladi, har bir tilda (lingvistik nuqtai nazarda) yoki nutq ko'nikmalarini salbiy o'tkazish shaklida (psixologik nuqtai nazarda) namoyon bo'lishi mumkin yoki ona tilining ko'nikmalarini o'tkazishga muvaffaqiyatsiz urinish (psixologik nuqtai nazarda), ya'ni nol shaklida ko'chirish hisoblanadi".¹

Ko'nikmalarning ko'chishi o'spirin, ayniqsa, katta yoshdagilarga chet til o'qitishda dolzarb muammo hisoblanadi. Ruhshunoslik va tilshunoslikdagi tadqiqotlardan ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining til tajribalari ona tili va o'rganilayotgan chet til o'rtasidagi tafovutlarni farqlash darajasida rivojlanmagan bo'ladi.²

¹ Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. . Теоретические основы сопоставительной лингвистики. –Т., 2007.-С-102.

² Lennon P. Contrastive Analysis, Error Analysis, Interlanguage. Bielefeld Introduction to Applied Linguistics. – Bielefeld: Aesthesis, 2008. – P. -2

Katta yoshlilar ona tili va o'rganilayotgan chet til haqida ma'lum bilim, ko'nikmaga ega bo'lganliklari sababli tillararo tafovutlarni tahlil etadilar. Bu esa nutqiy faoliyat jarayonida ikkilanishga va tormozlanishga olib keladi. Soha mutaxassislarining fikricha, kichik yoshdagi o'quvchilarning chet til o'rganishdagi muvaffaqiyati asosida ularning gapga emas tushunchaga, grammatik qurilma, ya'ni shakliga emas, balki mazmunga e'tibor qaratishlari, interaksiya jarayonida ikkilanish va tormozlanish holatlariga tushmasliklari zahirida yotadi.³

Ingliz –o'zbek tillararo interferensiyani keltirib chiqaruvchi sabablar:

1. Ingliz tildagi „artikl“ tushunchasi o'zbek tilida mavjud emasligi;
2. Ingliz tilida ko'makchi fe'llardan foydalanish holatlari o'zbek tilida mavjud emasligi;
3. O'zbek tilidagi kelishik qo'shimchalarining vazifasini ingliz tilida predloglar bajarishi;
4. O'zbek tilidan farqli ravishda ingliz tilida ish-harakatni ifodalovchi fe'l zamonlarining ko'pligi;
5. O'zbek tilida ravish fe'ldan oldin keladi, ingliz tilida esa u fe'ldan keyin keladi.

Interferensiya ta'sirida o'quvchilar tomonidan ko'p yo'l qo'yiladigan xatolar:

1. Ot so'z turkumiga oid so'zlarning barchasi ham –s, -es, -ies qo'shimchalarini qabul qilish orqali ko'plik shaklini beravermaydi. Masalan,

Xato	to'g'ri
Man- mans	men
Tooth-teeths	teeth
Foot-foots	feet

2. Fe'l so'z turkumiga oid so'zlarga hozirgi zamon 3-shaxs birlikda –s, -es, -ies qo'shimchalarining qo'shilishida yuzaga keladigan xatolar. Masalan,

³ Brown D.H. Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy. – NY.: Longman, 2007. – 101 p.

Xato	to'g'ri
Buy-buyes	buys
Cry-crys	cries
Have-haves	has

3. Fe'l so'z turkumiga oid so'zlarni o'tgan zamonda tushlash jarayonida xatoliklar kuzatiladi. Masalan,

Xato	to'g'ri
Give-gived	gave
Take-taked	took
Make-maked	made

Yuqoridagi xatolarning yuzaga kelishi ingliz tilda o'zlashtirilgan grammatik ko'nikmani amaliyotda qo'llash doirasining kengayib ketishini anglatadi. Demak, chet til o'rganish jarayonida egallangan til tajribasi ham interferensiyaga sabab bo'lishi mumkin.

Interferensiyaning bir nechta bo'linmalari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

- 1) fonologik sohada- fonologik xatolar, ya'ni fonemalardan foydalanishdagi xatolar;
- 2) morfologik sohada-affikslardan noto'g'ri foydalanish jarayonida yuzaga keladigan morfologik xatolar;
- 3) sintaktik soha - so'z tartibi, izchilligi, iboralar joylashuvi, gapning uyushiqqligi, gap mantiqiyligi, jumla tuzilishidagi xatolar;
- 4) semantik soha – so'zlar yoki gaplarni ma'nosini tushunishdagi xatolar.

Xulosa va takliflar

Chet til muallimi tillar o'rtasidagi o'xshashlik va nomutanosibliklarni ko'rsatish uchun dars mashg'ulotlariga qiyosiy mashqlar va o'yinlarni kiritishi, chet tilida yo'l qo'yilgan xatolarni o'quvchilar onggida mustahkamlanib qolmasligini ta'minlashi kerak. Interferensiya bilan bog'liq muammolarni hal qilish har bir so'zning lug'at ma'nolarini chuqur tushungan holda tilni chuqur o'rganish va tarjima qilishni talab qiladi. Shunday qilib, o'quvchilar salbiy ta'sirni yumshatib,

ko'proq lingvistik ravonlikka erishishlari mumkin. Shu sababli, chet tilini samarali o'zlashtirish uchun nazariy tushunish, amaliy qo'llash va lingvistik tahlilni o'z ichiga olgan ko'p qirrali yondashuv zarur.

Shuningdek, chet til muallimi o'quvchilarning ona tilisini, ikkinchi tilni va o'rganilayotgan chet tilni amaliy va nazariy puxta bilmog'i darkor. Shuningdek, o'qituvchining o'qitish metodikasidan atroflicha xabardor bo'lishi talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi,-Toshkent,2012.
2. Юсупов У .К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. . Теоретические основы сопоставительной лингвистики. –Т., 2007.-С-102.
3. M. & S. A. Press., Analisis Kesalahan & Karakteristik Bentuk Pasif., Surakarta: Muhammadiyah University, 2014.
4. Melia Sri Rahayu and Syahrul Ramadhan. Language Acquisition Learning to Reduce Interference./ Advances in Social Science, Education and Humanities Research, volume 604 4th International Conference on Language, Literature, and Education (ICLLE-4 2021)
5. Lennon P. Contrastive Analysis, Error Analysis, Interlanguage. Bielefeld Introduction to Applied Linguistics. – Bielefeld: Aesthesis, 2008. – P. 51-60.
6. Brown D.H. Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy. – NY.: Longman, 2007. – 101 p.